



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGI VAZIRINING**  
**BUYRUG‘I**

2023 yil. “20”dekabr

442-son

**ShNQ 2.08.02-09\* “Jamoat binolari va inshootlari” shaharsozlik normalari va qoidalariga qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentabrdagi PQ–292-son “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq **buyuraman:**

1. ShNQ 2.08.02-09\* “Jamoat binolari va inshootlari” shaharsozlik normalari va qoidalarining 3-bobi ilovaga muvofiq mazmundagi 21-paragraf bilan to‘ldirilsin.

2. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi hamda Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi bilan kelishilgan.

3. Ushbu buyruq rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Vazir



B.Zakirov

## 21-§. Модулли меҳмонхоналар

3.166<sup>1</sup>. Модулли меҳмонхоналарни лойиҳалаш ҚМҚ 2.01.03-19га мувофиқ амалга оширилиши, бунда уларнинг максимал баландлиги, жойлашиш жойи, шамол ва сейсмик таъсирларни ҳисобга олган ҳолда аниқланиши керак.

3.166<sup>2</sup>. Модулларни лойиҳалашда бўйлама ва вертикал деворлари орқали тушадиган юклар пастки модулларга узлуксиз узатилиши ҳамда устки модулнинг деворлари пастки модулга таяниши, бунда модуллар шамол ва сейсмик кучларга чидамли бўлиши лозим.

3.166<sup>3</sup>. Енгил металл деворлар каркаси швеллер кўринишидаги профиллардан тайёрланиши, бунда профиллар кўндаланг кесимининг қисқа томони ўлчами 65 mm дан 100 mm гача бўлиши зарур.

3.166<sup>4</sup>. Модулли меҳмонхона бинолари пол тўсинининг қалинлиги 150 mm ёки 200 mm, шунингдек пол ва шифтнинг умумий қалинлиги 300 mm дан 400 mm гача бўлиши керак.

3.166<sup>5</sup>. Модулли меҳмонхона биноларининг томи ҚМҚ 2.03.10-19га мувофиқ лойиҳаланиши лозим.

3.166<sup>6</sup>. Баландликда модулларни кўтариш, тушириш, ташиш, монтаж қилиш ва хавфсиз ечиб олиш махсус кўтарма рамалардан фойдаланган ҳолда амалга оширилиши керак.

3.166<sup>7</sup>. Модулли меҳмонхоналар дарак бериш ва ёнғиндан ҳимоя қилиш ускуналари билан жиҳозланган бўлиши керак.

3.166<sup>8</sup>. Модулли меҳмонхона бинолари учун завод шароитида тайёрланган модулларни ташиш О'zDst 681:96 талабларига мувофиқ амалга оширилиши лозим.

3.166<sup>9</sup>. Модулли меҳмонхона биноларини тўлиқ модулли ёки металл конструкцияларнинг аралаш шаклларида фойдаланган ҳолда лойиҳалашда қуйидаги модуллардан фойдаланилади:

тўрт томонли;

очик турдаги;

бирламчи структурали рамага таянувчи;

ортиқча юклантирилмайдиган.

3.166<sup>10</sup>. Тўрт томонли модуллар дераза ва эшик бўшлиқларга эга бўлиши, шунингдек уларнинг эни 4 m, ички кенлиги 3 — 3,6 m, узунлиги 6 — 10 m ташкил этиши лозим.

3.166<sup>11</sup>. Очик турдаги модулларнинг каркаси ва бўйлама четки тўсинлари металл бўлиши ҳамда уларнинг оралиғи 5 — 8 m, четки тўсин, шифт ва полнинг биргаликдаги қалинлиги 600 — 800 mm ни ташкил этиши лозим.

Очик турдаги модулларнинг кенлиги (эни) 3 — 3,6 m бўлиши керак.

3.166<sup>12</sup>. Бирламчи структурали рамага таянувчи модуллар пўлат ёки композит тўсинларга таяниши, бунда тўсинлар чизигидан ҳар бир қаватга тушадиган юк 15 kgf/m ни ташкил этиши, шунингдек устун (колонналар) ҳар 2-3 модулдан кейин жойлаштирилиши ҳамда конструкцияларнинг оралиқ масофаси 10 — 18 m бўлиши зарур.

3.166<sup>13</sup>. Ортиқча юклантирилмайдиган модулларнинг шакли тўрт томонли модуллардек лойиҳаланилиши, ташки юк таъсирларга мўлжалланмаслиги, улар бевосита полга ёки алоҳида конструкция устига ўрнатилиши, қурилиш давомида пол устига суриб жойлаштирилиши лозим.

Мазкур модуллар биноларда ҳожатхоналар, ваннахоналар ва хизмат кўрсатувчи хоналар сифатида қўлланилиши керак.»